

BO'LAJAK RASSOM-PEDAGOGLARGA PORTRET JANRIDA IJOD QILGAN BUYUK RASSOMLARNING ASARLARINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

Xudoynazarova O'g'iloy Sharifovna

*A.Qodiriy nomidagi JDPI. "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası
o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail: xudoynazarova.88@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash va ularga portret janrida ijod qilgan buyuk rassomlarning asarlarini o'rgatishning ahamiyati haqida so'z boradi. Portret janrida ijod qilgan rassomlarning asarlari o'rganilib, tahlil qilinadi va amaliy maslahatlar beriladi

Kalit so'zlar: Rangtasvir, obraz, psixologik holati, realistik, kolorit litografiya texnikasi, miniatyura san'ati, kompozitsiya, rang, shakl.

Важность обучения работы великих художников, которые создали портрет художников в жанре

Аннотация: В статье указаны важность преподавания работ великих художников, которые создали будущее художественное искусств портретном жанре. Работы портретной жанра будут изучены и проанализированы, и будет дан практические советы

Ключевые слова: Живопись, изображение, психологическое состояние, реалистичные, окрашивание, литографическая, миниатюрная, состав, цвет, форма.

The importance of teaching future artist- educators the works of great artists who created in the genre of portraiture

Annotation: The article discusses the importance of professional training of future teachers of fine arts and teaching them the works of great artists who created in the genre of portraiture the works of artists who have created in the portrait genre are studied, analyzed and practical advice is given.

Key words: Painting, image, psychological state, realistic, color, lithographic technique, miniature art, composition, color, shape

Portret – inson obrazini tasviriy san'atda yaratishda eng murakkab janr hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'limda talabalarga inson portretini ishlash davomida ichki uning psixologik holati, rang koloriti, faktura, yuz qiyofasining asliga o'xshatib tasvirlashga ahamiyat beriladi.

Portretni tomoshabinning qalbidan chuqur o'rin olishida uning kompozitsion yechimi, rang va shakl munosabatlarining chuqurligi ham alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki har bir davrning usta rassomlari bo'lgan. Ular portret asarlarida zamondoshlarining go'zal qiyofasi obrazlarini yaratib, keyingi

avlodlarga me'ros qilib qoldirgan. Uyg'onish davrining buyuk nomoyondasi Lenardo da Vinchining «Avtoportret»i, «Djakonda» asarlari dunyo tan olgan shoh asaridandir.

Bugungi kunda Yevropa muzeylarida Golbeyn, Rembrant, Titsian, Rafael, Botichelli kabi zabardast tasviriy san'at ustalarining yaratgan noyob asarlari saqlanmoqda. Odam yuz qiyofasining go'zal tuzilishi, tasvir vositalari, soya yorug' munosabatlarining o'zaro tuzilishlari, psixologik holatini chuqur o'rganish oliy pedagogik ta'limda taxsil olayotgan har bir talabaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

XX asrda o'zbek portret san'ati yuksalib rivojlandi. Portret sohasida Lutfulla Abdullayev, Abdulxaq Abdullayev, Raxim Axmedov, Malik Nabiyevar, Ro'zi Choriyev kabi ulug' rassomlar samarali ijod qildilar. Lutfulla Abdullayevning «Mulla To'ychi Toshmuxamedov», «Yo'ldosh Oxunboboyev» portretlari realistik ananalarda mohirona tasvirlangan.

Abdulxaq Abdullayev dastlabki o'zbek portretchi rassomlardan biri bo'lib, portret sohasida salmoqli ijod qildi. U o'z zamondoshlari, ziyolilari, olimlari adabiyot va san'at namoyondalarining portret galereyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishishgan. «Abror Xidoyatov Otello ro'ida», yozuvchi «Oybek» portreti muallifining shoh asarlaridan bo'lib, Otelloni o'ychan boqishi, gavda xarakati portretga romantik ko'tarinkilik ruxini baxsh etgan. Unda yuz ifodasi psixologik holati moxirona tasvirlangan. Oybek portretida shoir siymosi kompozitsiya jihatidan juda chuqur va mukammal ochib berilgan. Rassom bu asarda inson qiyofasini abadiylashtiribgina qolmay, balki hamma yuksak insoniy fazilatlar egasi, otash qalb, hayajon va tashvishga to'la buyuk yozuvchining jonli portretini yaratdi.

Rahim Axmedov portret janrida hayotga chuqurroq yondoshdi. Inson ichki kechinmalarini, xis - tuyg'ularini, orzularini, insonning go'zal qalbini o'z asarida ochib beradi. Uning «Ona o'ylari», «Surxandaryolik ayol», «Dehqon» portreti yorqin misol bo'la oladi.

Malik Nabiyevar asosan portret janrida zamondoshlari bilan bir qatorda tarixiy allomalar obrazini ham yaratish ustida ko'p mehnat qiladi. U 1952 yili «Beruniy» obrazini yaratdi. 1993 yili esa buyuk sarkarda «Amir Temur portreti» ni yaratdi. Portret kompozitsiyasini yaratishda rassomlarning o'ziga xos uslubi mavjud. Ular adabiy qo'lyozma, etnografik xujjatlardan unumli foydalanadi.

Portret mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi; bosh qismining portret ko'rinishi, ko'krak qiyofali portret (byust), yarim gavnali portret, butun gavda qiyofasi bilan ishlangan portreti, portret kartina, guruhli portret, miniatyura san'atidagi portreti va xakozo. Portret kompozitsiyaning tuzilishida insoning tashqi va ichki qiyofasi, uning ruhiyati, shuningdek qo'li, o'tirish

holati, liboslari, inter'erdagi predmetlar asosiy vosita sifatida muhim rol o'ynaydi.

Har bir rassom portret yaratishda o'z tajribasi, usuliga tayanadi. Bunga har xil kutilmagan holatda, rang va texnikada bajarilgan portretlar dalil bo'la oladi. Bahodir Jalolovning kinorejissyor «Komil Yormatov» portreti shu fikrimizni tasdiqlaydi. Shuning uchun portret yaratishda yoshlar ulug' portret ustalari tajribasini o'rganib ulardan unumli foydalanishlari lozim. Portretchi rassom avval tasvirlanuvchi bilan chuqurroq tanishib, birmuncha davrda uni kuzatib, suhbatlashib, uni asosiy xarakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini yaxshi o'rganishi kerak.

1940 yil boshlarida o'zbek shoiri Alisher Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishi munosabati bilan uni portretini yaratish uchun katta tanlov e'lon qilindi. Konkursda ellikdan ortiq (sobiq ittifoq rassomlari ham) ijodkorlar qatnashdi. Rassomlar oldida qiyin vazifa qo'yilgan edi. O'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, gumanist, mutafakkir olim, davlat arbobi obrazini yaratish kerak edi (yagona murojaat qilinadigan material Maxmud Muzaxxibning miniatyura namunasi). O'tmishni sinchiklab o'rgandi, Navoiy asarlarini o'qib, asar tuzilishi, mazmun- mohiyatini o'rgandi. Muzaxxib miniatyurasi shoirni tashqi qiyofasi haqida tasavvur berardi. Kaydalov ma'naviy shoirni realistik obrazini yaratdi.

Alisher Navoiy o'z vatani va xalqiga chuqur muhabbat bilan sug'orilgan poyetik meros qoldirdi. Konkurs hakamlari rassomga (yagona) ikkinchi mukofotni berdi. 1941 yili Kaydalov A. Navoiy portretini yaratishga kirishdi. Portretni oxiriga yetkazishga imkon bo'lmadi. Ulug' Vatan urushi boshlanadi. Boshlagan ishini 1947 yili davom ettirdi. Shoir ijodga ilhom qiyofasida tasvirlangan oldimizda o'ymakor kursi ustida yotgan kitob, chap qo'lida qo'lyozma ushlab turibdi. Deraza orqasida Xirot panoramasi iliq ranglarga boy, aniq yechimi, chehrasidagi psixologik holat. Yorug' vositasida kolorit. Shoirni ishonarli qiyofadagi tasviri rassom mahoratidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy portretida V. Kaydalov rang tasvir texnik vositalarini amalda o'zlashtirgan yetuk mohir rangtasvir ustasi ekanligini isbotladi. Portret 1947 yili yubiley ko'rgazmasida namoyish etildi. Davlat tomonidan asosiy etalon sifatida qabul qilindi. Undan minglab nushada rangli reproduksiylar bosilib O'zbekiston shahar qishloqlarida keng tarqatildi. Shoir obrazini yaratishdagi dastlabki ijod samarasi litografiya texnikasida bajarilgan. Rassom shoirni ko'krigida kitob ushlab turgan kuchli zakovatli, nozik didli, go'zal qiyofada tasvirlagan.

Chingiz Axmarov tasvriy san'atning qaysi janrida mo'yqalam tebratmasin, u tasviriy san'atdagi nozik va lirik shoiri sifatida namoyon bo'ladi.

U serqirra talant sohibi sifatida yuzlab asarlar, shu jumladan ko‘plab portret asarlari qoldirgan.

Chingiz Axmarov miniatyura san’ati an’alarini davom ettirgan holda novatorlik ruhi bilan sug‘orilgan asarlar ijod qildi. Uning barcha asarlarida insonning ma’naviy axloqiy go‘zallik, oliyjanoblighi asosiy o‘rinni egallaydi. Rassom Chingiz Axmarovning «Yosh Alisher» asarida navqiron shoir ulug‘ sifat qiyofada she’riyat, nafosat va buyuklik timsoli sifatida gavdalanadi. Butun olam chamanday yashnayotgan bahor fasli Alisher Navoiy qalbining donolik va zakovat nurlari bilan to‘layotganidan, o‘z ijodi va hayotini xalq va o‘lka g‘amiga safarbar etayotgan inson voyaga yetishayotganidan darak berayotganday.

Rassom Xalima Nosirovani birinchi bor G‘ulom Zafariyning «Xalima» pesasida Xalima obrazida ko‘radi va qoyil qoladi. Uzoq yillar mobaynida u ajoyib san’atkor obrazini tasavvurida ardoqlab yuradi va 1973 yili xolstga tushirishga muyassar bo‘ladi. Rassom Mukarrama Turg‘unboyeva qiyofasida kabutardek yengil raqs tushayotgan sahna parisini, Zulfiya obrazida buyuk ehtiros bilan olamga nigoh tashlagan shoirani, X. Nosirova siymosida xassos san’atkorni ifoda etadi. «Nursari»ga bag‘ishlangan qator asarlarida ayollar olamiga nur tarqatish, hayot berish uchun kelganday, go‘zallik ramzi sifatida gavdalanadi. Chingiz Axmarov polotnolarida insonning ma’naviy go‘zalligi, oliyjanoblighi ulug‘vorligi va ko‘rkamlighi haqidagi she’riyatdek tuyuladi.

Xulosa o‘rnida shularni aytish mumkinki, har qanday san’at turi xususan portret san’ati ham insonga o‘z ta’sirini o‘tkazib uning dunyoqarashini shakllantiradi. Portret san’ati insonda hayotdagi ko‘rsatgan jasoratini, fikr va ichki xisssiyotlarini aks ettiradi, rang va shakl vositasida namoyon qiladi.

Portret kompozitsiyasining yechimi, murakkab ruhiy holatini topish, bo‘lajak o‘qituvchidan kundalik hayotdagi go‘zallikni aks ettirish muammolarini, zamondoshlarning ichki his-tuygularini sezishni, to‘g‘ri chuqur tasavvur etishni talab qiladi. Jahon tasviriy san’at asarlari tarixini o‘rganish bilan bir qatorda o‘zbek tasviriy san’atining dastlabki rivojlanishi bosqichlarida rassomlar portret asarlarini sharqona hayo, rang-barang liboslarda tasvirlaganlar.

Shuning uchun bugungi kunda talabalarni bo‘lajak pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlashda, buyuk rassomlarning ijodiy jarayonlari, bosib o‘tgan yo‘llari va portret asarlarini o‘rganishda va ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tarbiyalashda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov N, Abdirasilov S, Oripova N. “Rangtasvir”. T. 2006
2. R. Rajabov, H. Sultonov “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”(o‘quv qo‘llanma). T. 2008. 30-31 bet.

3. T. Qo'ziyev, A. Egamov, T. Qanoatov, A. Nurqobilov "Rangtasvir" 5-9 sinflar uchun. "San'at" jurnali nashriyoti. Toshkent. 2003.